

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TALIMI VAZIRLIGI



NAMANGAN VILOYATI  
XALQ TALIMI BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATI METODIKA  
MARKAZI

Ilg'or pedagogik texnologiyalar  
bo'yicha tajriba-tatqiqot maydonida  
7-umumiy o'rta ta'lim maktabi huquq fani  
o'qituvchisi *ERANOVA RA'NOXON*ning  
9-sinflarda Konstitutsiyaviy huquq  
asoslari fanidan

“O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining  
asosiy prinsiplari” mavzusidagi

**DARS ISHLANMASI**

Ushbu dars ishlanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etish maqsadida ishlab chiqilgan "Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi huquqqa yo'naltirilgan 9-sinflar uchun davlat ta'lim standarti " asosida huquq darslarida o'tish uchun mo'ljallangan

o'rta  
tarix va  
ta'limi

Muallif: Namangan shahridagi 7-umumiy ta'lim maktabining Oliy toifali huquq fani o'qituvchisi, Xalq a'lochisi **R.Eranova**

Muharrir: Namangan viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi Metodika markazi metodisti **D.Sultanova**

Taqrizchilar: Namangan shahar XTMFMT va TE bo'limiga gaqarashli 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining O'TIB direktor o'rinbosari **R.Aliyeva**

Namangan shahar XTMFMT va TE bo'limiga qarashli 35-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali huquq fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi **Ch .Aliyeva**

Viloyat Metodika markazi huzuridagi metodika kengashining 20\_\_-yil "\_\_\_"\_\_\_\_\_oyidagi metodik kengash yig'ilishida №\_\_ sonli qarori bilan tasdiqlanib foydalanish uchun tavsiya etildi.



Namangan shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining oily toifali tarix-huquq fanlari o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi Eranova Ra'no Abdimalovna

Ra'noxon Eranova o'z pedagogik faoliyatini 1983 yildan Namangan viloyati, Uchqorg'on tumanining 8-umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshlagan. 1997 yildan hozirga qadar Namangan shahridagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida ishlab kelmoqda. U o'zining izlanuvchanligi, to'g'ri so'z va haqqoniyligi, bolajonligi bilan maktab jamoasi orasida tez tanildi.

R.Eranova yangilikka intiluvchan o'qituvchilardan biri bo'lib, darslarni zamon talablari asosida tashkil etadi.

U ish faoliyati davomida 1000 dan ortiq ko'rgazmali qurollar, al'bom, buklama, testlar banki va xaritalar tayyorlashga muvaffaq bo'ldi.

R.Eranovaning qator shogirdlari fanlar olimpiadasining shahar, viloyat, respublika bosqichlarida 1-2-3-4-o'rinlar g'oliblari va ishtirokchilaridir. Jumladan, uning o'quvchisi M.Eranov 2010 yil huquq fani olimpiadasining Respublika bosqichida faxrli 4-o'rinni olgan. Shogirdlaridan 30ga yaqini ustozlari bilan bir sohada mehnat qilmoqda.

R.Eranovaning dars berish usulini shaharda, viloyatda, respublikada seminar, plakatlar, yangi pedagogik texnologiya-interfaol usulidagi dars ishlanmalari jamlangan kitobcha orqali ommalashtirilgan. 2003 yili "Yil o'qituvchisi-2003" ko'rik tanlovining Respublika bosqichi qatnashchisi.

U mehnat faoliyati davomida ko'rsatgan yuqori natijalari uchun "Diplom", "Faxriy yorliq", "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

*To'rt narsa: tinchlik, barqarorlik,  
yaxshilik va osoyishtalik jamiyat  
poydevoridir.*

*Mavlono Abdulloh Ansoriy*

I. Sana: 2012 yil 26 sentabr

II. Sinf: 9-“N”

III. Mavzu: *“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari”*

IV. Maqsad

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga davlat mustaqilligining xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib berish, davlat suvireniteti, O'zbekiston Respublikasida qaror topgan demokratik g'oyalar va uning shakllari, mohiyatini ochib berish, hokimiyatlar bo'linish prinsipi haqida tushuncha berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni davlat suvirenitetini hurmat qiladigan, demokratik tamoyillarga amal qiladigan, qonunlarni va davlat ramzlarini hurmat qiladigan, huquqiy demokratik davlatga munosib shaxs qilib tarbiyalash.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'zaro raqobat orqali fanga qiziqish va fikirlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z fikrini bayon qilish malakalarini hosil qilish orqali huquqiy demokratik davlatga munosib vorislarni tarbiyalash.

V. Darsning turi: aralash.

VI. Darsning uslubi: aqliy hujum, savol-javob, blits so'rovi, bahs-munozara, guruhlarda ishlash, kartochka bilan ishlash usuli.

VII. Darsning jihozlari:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- darslik;
- plakatlar;
- tarqatma materiallar;
- test savollari;
- kompyuter, ekran, proektor;
- davlat ramzlari to'risidagi Qonunlar.
- Mustaqillik Deklaratsiyasi.

DTS talablari

O'quvchilar Konstitusiyaviy huquq asoslari ga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart;

O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining tuzilishi va mazmunini tavsiflay olish, inson va fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklarini, ulardan foydalanish kafolatlarini bilish;

Konsitutsiya va qonunlarga rioya qilish, ularni hurmat qilish malakalariga ega bo'lish;

O'zbekiston Respublikasining davlat boshlig'i, davlat hokimiyati tizimi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'linishini ularning vazifalarini tushuntira olish;

Davlat boshligi va parlament, Ozbekiston Respublikasi konstitusiyaviy tizimini muhofaza qilish, milliy davlat tuzilishi masalalariga oid qarorlarni ro'yobga chiqarish borasida zarur chora tadbirlar belgilashni, xalqaro munosabatlarda Respublika nomidan ish ko'rishini bilish;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida voyaga yetmaganlar tushunchasi, ularga qo'llaniladigan huquqiy aktlar, voyaga yetmaganlarning huquqiy holatini bilish;

Ta'lim sohasi va yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy kamoloti uchun barcha huquqiy asoslar mavjudligini bilish;

O'zini kelajagi buyuk davlat bunyodkori sifatida his etib, mamlakat taraqqiyotiga munosib ulush qo'sha olishni bolish va unga intilish.

### **Darsning texnologik xaritasi**

Dars bosqichlari	O'qituvchining faoliyati	O'quvchining faoliyati
1. Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash	Salomlashib, navbatchi o'quvchi davomatni topshiradi
2. Guruhlarga bo'lish	“Qalqon”, “Diyonat” , “Adolat” ,“Tinchlik”	O'quvchilar to'rt guruhga bo'lindilar.
3. Darsning oltin qoidasi	O'qituvchi so'raydi	O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradi
4. Darsning shiori	Kuch adolatda	O'quvchilar shiorni aytadilar.
5. Darsning maqsadi	Huquqiy demokratik jamiyat va davlat qurish	

6. Siyosiy va ma'naviyat daqiqalari	Tezkor savol-javoblar.	
7. O'tilgan mavzuni	Takrorlash Tarqatma savollar	Savollarga javoblar olinadi
8. O'tilgan mavzuni so'rash	blits so'rovi	O'quvchilar kichik guruhlarda ishlaydi
9. Yangi mavzuga kirish	Motivatsiya . O'qituvchi axboroti	O'quvchilarga tushunchalarni berish
10. Mavzu bayoni	O'qituvchining yangi mavzu bo'yicha ma'lumoti	O'quvchilar guruhlarga bo'linib topshiriq oladilar va muloqotga kirishadilar.
11. Guruhlarda ishlash	O'qiyuvchi guruhlarga vazifa topshiradi	Guruh sardorlari topshiriqni olib guruh a'zolari birgalikda ishlaydi
12. Mavzu: Mustahkamlash	Yangi mavzudan nimani bilib olganligini so'raydi	kartochka bilan ishlash usulida o'quvchilar darsdan nimani o'rganganligini yozadi
7. Ba'holash	Qo'lga kiritilgan ballar hisoblanadi	Rag'batlantiradi, kartochkalar berib boriladi
8. Uy vazifasi	O'rganilgan mavzu savollariga javoblar	

## VII. Asosiy tushuncha va atamalar:

Davlat suvereniteti;  
 demokratiya;  
 bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) demokratiya;  
 vakillik (bilvosita) demokratiya;  
 konstitutsiyaviy prinsiplar;  
 referendum.

## Darsni bosqichlari jadvali:

Taskiliy qism: sinf xonasini sanitarik va gigenik xolatini tekshirish, davomatni aniqlash	1-minut
Guruhlarga bo'lish	2-minut
Oltin qoida	2-minut

Darsning shiori va maqsadi	1-minut
O'tilgan mavzuni so'rash	10-minut
O'qituvchi axboroti	8-minut
Kichik guruhlarda ishlash	8-minut
Yakunlar chiqarish	5-minut
Baholash	2-minut
Uy vazifasi	1-minut

Ajratilgan soat: 1-soat

Darsning rejası:

Davlat suvereniteti;

O'zbekiston Respublikasi – mustaqil suveren davlat;

Demokratiya- xalq hokimiyatchiligi;

konstitutsiyaviy tuzum prinsiplari.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) Assalomu alaykum aziz o'quvchilar

b) Va'alaykum assalom aziz ustoz muallim

Darsning shiori: Kuch adolatda.

Darsning maqsadi: Huquqiy demokratik jamiyat va davlat qurish.

Davomat aniqlanib, darsning oltin qoidalari yaratiladi.

-Yangilik

-Izlanish

-Faollik

-Ozodalik

-Erkin fikr

-Do'stona munosabat

-Reglament

O'quvchilar inglizcha sanash orqali to'rt guruhga bo'linadilar.

-Tinchlik

-Adolat

-Diyonat

-Qalqon



O'quvchilar hozir men sizlarni siyosiy va ma'naviyatga oid bilimlaringizni sinab ko'rmoqchiman (dunyo, O'zbekiston, ma'naviyat, sport yangiliklari, ekologiya, giyohvandlik, sentyabr oyining muhim sanalari)

-Ma'naviyat insonning ulg'ayishi va kuch-qudrat manbaidir.

-Mustaqillik ma'naviy tiklanish va yuksalish.

-Ma'naviyatga tahdid-o'zligimiz va kelajagimizga tahdid.

-Eng buyuk jasorat-ma'naviy jasorat.

-Tabiatni asrash muqaddas burchimiz.

-Orolni saqlab qolish-vazifamiz.

-Giyohvandlik-asr vabosi.

-1 sentabr Mustaqillik bayrami;

-11 sentabr xalqaro terrorizmga qarshi kurash kuni.

VIII. Uy vazifasi guruhlardan blits usulida so'raladi.

Mustaqil O'zbekistonga Konstitutsiya nima uchun kerak?  
– Yangi davlat tuzumini barpo etish va yuridik jihatdan rasmiylashtirish va tartibga solish uchun kerak.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan? – 1992 yil 8 dekabr.

O'zbekiston Respublikasi qachon e'lon qilingan?  
– 1991 yil 31 avgust

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy hususiyatlarini sanab o'ting?

– Oliy yuridik kuchga ega, davlatning asosiy qonuni, joriy qonun hujjatlarining asosiy manbai va bazasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy hususiyatlari nimada?  
– Davlat inson uchun, uning hayotini yaxshilash uchun mavjuddir degan asosiy prinsip mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyani yaratish bo'yicha komissiya qachon tuzilgan va unga kim rahbarlik qilgan? 1990 yil 20 iyunda, I.A Karimov.

Hozirda amalda bo'lgan Konstitutsiya O'zbekistonda Oliy Kengashining qaysi sessiyasida qabul qilingan? – XI sessiyasida/

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mundarijasini aytib bering?  
– 6-bo'lim, 26-bob, 128-moddadan iborat.

Muqaddimaning maqsad va vazifalari qanday? –Umuminsoniy demokratik davlat qurish.....



Konstitutsiyada e'lon qilingan umuminsoniy qadriyatlar? – ma'naviy qadriyatlar, vatanparvarlik va fuqarolikka sadoqat, demokratik qadriyatlar.....

O'tilgan mavzu yakunlanib o'quvchilar baholanib rag'batlantiriladi.

Aqliy hujum usulidan foydalannib yangi mavzu boshlanadi:

-Davlatimizda qandaydir mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkinmi? – Yo'q

-Qadim zamonlardan mavjud bo'lgan qaysi institutlar davlatimizning hozirgi konstitutsiyasi bilan qayta tiklandi? – Hokim, mahalla

-Davlatchilikning poydevori nima? – Suverenitet

-Konstitutsiya nima? – Mamlakatning davlat tuzilishini belgilovchi, hokimiyat organlari tashkil qilinishini tartibga solib turuvchi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini mustahkamlab qo'yuvchi asosiy qonun.

-Muqaddima nima? – Xalqning konstitutsiya qabul qilinayotgan maqsadlar va prinsiplar to'g'risidagi tantanali bayonoti.

-Senzura nima? – Davlat uchun mafkuraviy jihatdan zararli hisoblangan maqolalarni taqiqlash maqsadida e'lon qilinayotgan materiallarning oldindan ko'zdan kechirilishi.

-Siyosiy plyuralizm – bu...? – Siyosiy institutlar, fikrlar va mafkuralar rang-barangligi va qandaydir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida e'tirof etilishining taqiqlanishi.

-Konstitutsiyaning kirish qismi...(Muqaddima)

II. Yangi mavzuni ro'yobga chiqarish ustida ishlash.

Yangi mavzu guruhlarda ishlanadi. O'quvchilarga darslik va O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasidan foydalanib eng muhim konstitutsiyaviy prinsiplarni yozish vazifasini beriladi.

1-guruh “Adolat” – Davlat suvereniteti nima? (O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 3-moddasi)

2-guruh “Qalqon” – Demokratiya - xalq hokimiyatchiligi prinsipi. (O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 7-moddasi, 9-moddasi)

3-guruh “Diyonat” – Hokimiyatlar bo'linish prinsipi. (O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 11-moddasi)

4-guruh “Tinchlik” – Davlat ramzlari . (O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 5-moddasi)

Guruhlardan ushbu konstitutsiyaviy prinsiplarga davlatimizda rioya etilishini isbotlab berilishi talab etiladi.

1-guruh “Adolat” – Davlat suvereniteti nima? – Davlatning o’z ichki hayotida va tashqi munosabatlarida boshqa davlatlardan mutaqilligidir.

O’zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning “O’zbekiston Respublikasi” va “O’zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi. (O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 1-moddasi)

Davlat suvereniteti nafaqat mamlakat hududida, qolaversa, uning chegaralaridan tashqarida ham yuzaga keluvchi muammolarni hal etayotganda hokimiyatni amalga oshirish borasida boshqa davlatlardan to’la-to’kis mustaqillikni anglatadi.

Davlatni belgilovchi alomatlaridan biri uning davlat suvereniteti sanaladi. 1990 yil 20 iyunda O’zbekiston Respublikasining “Mustaqillik deklaratsiyasi” qabul qilingan, unda respublika davlat suverenitetining asosiy prinsiplari mustahkamlanib qo’yilgan edi, shu jumladan:

Davlat hududi hamda chegaralarining daxlsiz va bo’linmasligi;

Mustaqil ichki va tashqi siyosat;

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini e’tirof etish va hurmat qilish;

O’z taraqqiyot yo’lini, davlat ramzlarini tanlashdagi mustaqillik va hokazolar.

1991 yil 31 avgustda O’zbekiston Oliy Kengashining XII sessiyasida mamlakatimiz davlat mustaqilligi e’lon qilingan edi. Ana shu sessiyada “O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to’g’isida”gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilingan, u O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan 1992 yil 8 dekabrga qadar Asosiy qonun rolini bajargandi.

Davlatimiz suverenitetini quyidagi alomatlar bo’yicha aniqlash mumkin:

o’z konstitutsiyaviy-huquqiy tizimining mavjudligi;

hudud;

davlat hokimiyat organlari tizimi;

yagona Qurolli kuchlar;

davlat mulki, yagona pul-kredit tizimi;

davlat tili;

davlat ramzlari;

xalqaro munosabatlar subyekti ekanligi.

Davlat suvereniteti – davlat mustaqil rivojlanishining zaruriy shartidir, ammo bu narsa davlat biron-bir tarzda cheklanmaydigan hokimiyatdan foydalanadi degan ma’noni anglatmaydi. Kishilar orasida yashab turgan

odam ularning ehtiyojlarini inobatga olishiga to'g'ri kelgani kabi, davlat ham boshqa davlatlar bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'lganligi tufayli ular manfaatlarini nazar-pisand qilmasligining iloji yo'q.

Davlat mustaqilligiga erishilishi O'zbekistonga mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'yishiga, jahon hamjamiyatiga xalqaro munosabatlarning tola huquqli subyekt sifatida kirishga imkon beraadi.

2-guruh "Qalqon" – Demokratiya - xalq hokimiyatchiligi prinsipi. Xalq hokimiyatchiligi prinsipi xalqni hokimiyatning yagona manbai deb e'lon qilingan Asosiy qonunda aks ettirilgan (7-modda).

Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "demokratiya" tushunchasining mazmuni chuqur tahlil etilib, mohiyatan ma'naviy qadriyatlar, mezonlar orqali boshqariladigan kuchli fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat ekanligi ta'kidlanadi. Demokratiyaga mansub mana shu ikki tarkibiy qismga tayangan holda "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" konsepsiyasi hayotga tadbiiq etilmoqda.

Xalq hokimiyatchiligi prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tamal g'oyalaridan biridir.

Xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi lozim, zero, mustaqillik so'zining zamirida ham katta, ulug' huquqqa ega bo'lish degan tushuncha yotadi.

**ISLOM KARIMOV**



"Xalq hokimiyati" (δημοκρατία) so'zining tarjimasidir. U ikki marotaba Qadimgi Gretsiyada dunyoga kelgan bu tushuncha butun jahonga keng tarqaldi.

Demokratiya – bu:

fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etishi;

hammaning va har kimning qonun oldida tengligi;

jamiyat va inson xavfsizligi;

fuqarolar huquq va erkinliklarining to'la-to'kisligi;

inson farovonligi va manfaatlarini xususida davlat g'amxo'rliqi;


inson huquq va erkinliklari muhofazasi kafolatlangan mexanizmning mavjudligidir.

O'z tarixi davomida insoniyat demokratiyaning ikki shaklini ishlab chiqdi, ya'ni:

- bevosita, ya'ni to'gridan-to'g'ri demokratiya, bunda xalq davlat ishlarini vakillarsiz o'zi hal qiladi.

- vakillik demokratiyasi, bunda xalq o'z suveren huquqlarini o'zining saylab qo'yilgan vakillari orqali amalga oshiradi.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari umumxalq muhokamasiga olib chiqiladi, shuningdek, umumxalq ovozi – referendum yo'li bilan hal qilinadi. Referendum demokratiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lib, xalq hokimiyatini bevosita amalgam oshirish vositasi hisoblanadi.



O'zbekiston xalqi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarini va davlatimiz Prezidentini saylaganda bevosita demokratiyadan foydalanilgan edi.

Davlat miqyosidagi muammolarni xalq bevosita o'zi, referendumda, ya'ni mamlakat siyosiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan umumxalq ovoz berishida ishtirok etganida, umumxalq muhokamasida qatnashganda hal qiladi.

Davlat qaror qabul qilishi uchun jamoatchilik fikrini bilishi zarur bo'lib qolganda konstitutsiya, qonunlarning loyihalari umumxalq muhokamasiga qo'yilishi mumkin. Referendum butun mamlakat miqyosida yoki mahalliy darajada o'tkazilishi mumkin. Referendumda ma'lum masalaga ovoz beriladi.

Xalq shu alfozda mamlakat hayotiga faol ta'sir o'tkazadi.

### O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi shakllari

referendum

saylovlar

yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar

davlat organlariga takliflar, shikoyatlar va arizalar bilan yakka tartibda va jamoat tarzida murojaat qilish

qonun

3-gur

davlat

bo'lin

Ana s


etish

qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida taqsimlanadi.

Bu narsa nima uchun zarur? Har qaysi hokimiyat tarmog'ining hokimiyat vakolatlari doirasidan chetga chiqish va uni suiste'mol qilish imkoniyatiga yo'l qo'ymagan holda boshqasini tiyib turish uchun zarurdir. Hokimiyatlardan birortasi ham boshqasining faoliyatiga aralashmasligi shart. Bu prinsipning amaldagi ifodasi qandaydir bir guruh yoki alohida shaxs tomonidan hokimiyat egallab olinishiga yo'l qo'yilmaslikka qaratilganidir. Faqat va faqat qonunga bo'ysunishlari shart bo'lgan sudlov organlari faoliyatiga aralashish esa alohida xavf-xatar tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 11-modda)

4-guruh "Tinchlik" – Davlat ramzlari. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.



atik

tlar

ijro

i –



Mazkur moddada davlatimiz bayrog'i, gerbi va madhiyasining huquqiy asosi ifodalangan.

Davlatimiz ramzlari bayroq, gerb va madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir.<sup>1</sup>

Har bir mustaqil davlat o'z ramzlariga ega bo'lganidek, O'zbekiston Respublikasi ham davlat mustaqilligining ramzlariga ega va ular to'g'risida maxsus qonunlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i 1991 yil 18 noyabrda Oliy Kengash tomonidan tasdiqlangan. O'zbekistonning davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda Respublikaning bugungi tabiatiga muvofiq keladigan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o'zligini ham aks ettiradi.

Bayroqdagi havorang bo'yoq – zangori osmon va musaffo suvning, shuningdek yer va osmondagi hayot manbalarining ramzidir. Ma'lumki, buyuk Amir Temur davlatining bayrog'i ham havorang bo'lgan.

Oq rang – tinchlik va poklik timsoli. Bayrog'imizdagi bu rang yosh mustaqil davlatimiz oshib o'tishi lozim bo'lgan dovonlardagi yo'lning yorqin va charog'on bo'lishi uchun ezgu niyat ifodasidir.

Bayroqning qizil rangdagi yo'llari – har bir tirik jon qon tomirida jo'shib turgan hayotiy kuchning, barhayotlikning ramzi.

Yashil rang esa tabiatning timsoli, gurkirab yashnayotgan hayot va hosildorlikning ramzidir. Bayroqdagi yarim oy o'zbek xalqining ko'p asrlik an'analarga muvofiq keladi. Chunonchi, yarim oy va yulduzlar musaffo osmonning, tinchlikning ramzidir. 12 raqami qadimdan xalqlarimiz orasida mukammallik timsoli bo'lib kelgan. Shu bois ham bayrog'imizga o'n ikki yulduzning tasviri tushirilgan. Davlat bayrog'i bizning ko'xna o'tmishimiz, bugungi kunimiz va buyuk kelajagimizning ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi Respublika Oliy Kengashi o'n uchinchi sessiyasida 1992 yil 2 iyulda tasdiqlangan. Uning markazida qanotlarini keng yoyib turgan Humo qushi tasvirlangan. U baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Humo qushi o'zbek xalqi orasida odamlarni baxt-saodatga yetaklovchi ilohiy qushning ramzi sifatida e'zozlab kelingan. Jumladan, Alisher Navoiy Humo qushini tirik mavjudotlar ichida eng sahovatlisi deb ta'riflagan.

Gerbning yuqori qismida O'zbekistonni sobit va barqarorligi ramzi bo'lgan sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan.

Quyosh tasviri - o'zbek davlati va xalqining hayot yo'li hamisha nurli bo'lishi uchun bildirilgan ezgu niyat ramzi. Bundan tashqari, Quyosh mamlakatimizdagi nihoyatda go'zal tabiiy iqlim sharoitini ham ko'rsatib turadi.

Gerbda boshloqlar – rizq-ro'zimiz bo'lmish g'allaning timsoli oppoq bo'lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g'o'za shonalari serquyosh O'zbekistonning dong'ini taratgan asosiy boyligimiz ramzidir. Bug'doy boshloqlari va paxta chanoqlarining davlat bayrog'iga o'xshash tasma bilan o'rab qo'yilganligi mamlakatimizda yashayotgan xalqlar yakdilligini timsolidir.

Gerbimiz rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumush rangda; quyosh, paxta chanog'i va "O'zbekiston" yozuvi tilla rangda; tog'lar havorang bo'yoqda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda; davlat bayrog'I tasvirlangan tasma to'rt xil rangda berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992 yil 10 dekabrda Respublika Oliy Kengashida tasdiqlangan. Davlat madhiyasining she'rini mashhur o'zbek shoiri Abdulla Oripov yozgan, musiqasini esa taniqli san'at arbobi Mutal Burxonov bastalagan.

Madhiya matnida O'zbekistonning go'zal tabiati, uning serquyosh o'lka ekanligi, vodiylarning oltinga monandligi, elga baxt, najot keltirishi, do'stlarga yo'ldosh va mehribon ekanligi, haqsevarligi, bag'rida ilm-fan, ijod qaynashi singari o'lkamizga shon-shuxrat keltiradigan qadriyatlar yuqori pardalarda tarannum etiladi. Shuningdek, O'zbekistonda yashaydigan xalqlarning doimo uning tinchligi, osoyishtaligi va mustaqilligi uchun kurashganliklari haqidagi tarixiy haqiqatlar ham madhiyada o'zining badiiy ifodasini topgan.

Madhiyaning musiqasida ham elimizga juda manzur keladigan istiqboldagi farovon hayotning nash'u namosi ohanglariga monand g'oyat ko'tarinki ruh g'ayratga, ijodga, istiqloлга da'vatdek mag'rur jaranglaydi.

O'quvchilar rag'batlantiriladi

Darsning keyingi bosqichida o'tilgan mavzu yuzasidan yakunlar chiqariladi.

Har bir o'quvchiga "Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari" kartochkasi tarqatiladi. O'quvchilar bugungi darsda qanday konstitutsiyaviy prinsiplarni bilib o'rganliklarini yozadilar va taqdimotga chiqadilar.

### O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining asosiy prinsiplari

suverenitet

xalq hokimiyatchiligi

demokratiya

qonun ustivorligi

ijtimoiy adolat

davlat ramzlari va hokazo..

O'quvchilar baholanib uyga vazifa topshiriladi:

Konstitutsiyaviy prinsiplar ro'yxatini tuzing.





*Foydalanilgan adabiyotlar:*

*I.A.Karimov “Yuksak manaviyat-yengilmas kuch”.*

*I.A.Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li*

*3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.*

*4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh.*

*5. I.A.Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li//*

*O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom, T., 1996.*